

“FRANZ KAFKANING “EVRILISH ASARIDA METAMORFOZA MOTIVI VA BOSH QAHRAMON RUHIYATI TAHLILI”

Isomiddinova Sarvinoz Eshqobil qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ,Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi
sarvinozisomiddinova996@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Franz Kafkaning “Evrilish” asarida metamorfoza motivining badiiy va falsafiy mazmuni ,shuningdek ,bosh qahramon Gregor Zamzaning ruhiy holati bosqichma-bosqich tahlil qilinadi.Asarda sodir bo‘lgan jismoniy o‘zgarishi – odamning hasharotga aylanishi – modernizm adabiyotiga xos ramziy ifoda sifatida talqin qilinib ,insonning jamiyatdan begonalashuvi ,qadrsizlik kompleksi ,ijtimoiy mas’uliyatning bosimi va oilaviy munosabatlarning murakkabligi kabi masalalar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: metamorfoza, modernizm , degumanizatsiya, ekzistensial holat, begonalashuv, psixologik izolyatsiya, jamiyat, oila, psixologik portret.

Jahon adabiyotida shaxs va jamiyat , ijtimoiy tuzum o‘rtasidagi ziddiyatni o‘tkir ifodalagan yozuvchilardan biri bu – Franz Kafka. Uning “Evrilish” asari insonning jamiyatdagi o‘rni, ruhiy tushkunlik, begonalik va ichki inqiroz kabi tushunchalarni badiiy shaklda ifodalagan noyob asarlardandir. Asardagi metamorfoza motivi nafaqat fantastik voqea, balki insonning ichki dunyosida kechayotgan ruhiy o‘zgarishlarning ramziy ifodasidir.

Metamorfoza – badiiy asarda qahramon yoki predmetning boshqa bir turga ,jonozotga yoki shaklga o‘zgarishi orqali fikr va g‘oyani badiiy ifodalalash usuli.Bu tushuncha qadimiy mifologiya hamda antik adabiyotning badiiy tizimida shakllangan. Modernizm adabiyotida esa metamorfoza tushunchasi yanada murakkablashib, ramziylik va psixologik talqinlar bilan boyidi. Xususan, modernizm davrida ushbu motiv inson ruhiyatining ichki parokandaligi, begonalashuvi va jamiyat bilan ziddiyatlarini ifodalovchi psixologik-metaforik usul sifatida qo‘llanila boshladi. Modern adabiyotda metamorfoza ko‘pincha sababga ega bo‘lmagan, irratsional hodisa sifatida tasvirlanadi va shu tariqa insonning ichki iztiroblari, ma’naviy tushkunligi va o‘zlikdan ajralish jarayonini ochib beradi.

Kafkaning “Evrilish” asari metamorfoza motivining talqinini yaqqol ifoda etadi. Asarda bosh qahramon Gregor Zamzaning hasharotga aylanishi tashqi o‘zgarishdan ko‘ra ichki ruhiy yemirilishning kuchli ramziga aylanadi. Kafka metamorfozani fiziologik yoki mifologik jarayon sifatida emas, balki insonning jamiyatdan ajralishi, qadrsizlanishi, ruhiy

iztiroblari va ekzistensial holatini ko‘rsatuvchi badiiy usul sifatida qo‘llaydi. Shunday qilib, adabiyotdagi metamorfoza motivining tarixiy ildizlari antik estetikaga borib taqalsa-da, uning modern adabiyotdagi psixologik va falsafiy talqini mutlaqo yangi ma’nolar bilan boyigan bo‘lib, aynan Kafka ijodida bu motiv ruhiy jarayonlarning badiiy ifodasiga aylangan. Kafka asari qahramoni Gregor Zamzaning noma’lum, yirik hasharotga aylanib qolishi va bu holatning u tomonidan tezda qabul qilinishi absurd adabiyoti xususiyatlardan biridir. Gregor Zamzaning hasharotga do‘nishi uning jismoniy oilani moliyaviy tanqislikdan olib chiquvchi ishchi kuchi sifatida keraksiz vujudga aylanganini ko‘rsatadi. Avval boshda bu holatdan qo‘rqib ketgan ota-onasi, singlisi, so‘ngra undan jirkanib, nafratlanishni boshlashadi. Gregorning hasharotga xos zaifligi, instinktlari uni yanada yolg‘izlatadi. Kafka metamorfozasi jamiyatda qanday qilib insonning o‘zgarib qolishi va uning o‘z yaqinlari tomonidan go‘yo bir jirkanch hasharotdek unutilishi, va hatto, tugab, chiqitga chiqishi mumkinligini badiiy ko‘rsatib beradi. Hikoyadagi metamorfoza go‘yo bo‘lishi muqarrar hodisa kabi tabiiy yuz beradi. Bu jarayonning yuz berishi qanday kechgani, qancha vaqt oralig‘ida ro‘y bergani ma’lum emas, bu matnda izohlanmaydi. Zamza oilasi yashaydigan uy va bir xona (Gregorning xonasi)da kechadigan voqealar nafaqat shu mikromakonda, balki butun bir jamiyatda - makromakonda yuz berayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Gregor Zamzaning hasharotga aylanishi tashqi ko‘rinishdagi fantastik hodisa bo‘lsa-da, u aslida uning ruhiy holatida allaqachon boshlangan izdan chiqishning ramziy ifodasidir. Dunyo adabiyotshunosligi, xususan ingliz tilidagi tadqiqotlarda qahramonning metamorfozasi psixologik o‘zgarish, jamiyatdan uzilish va shaxsning degumanizatsiya jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Gregorning ruhiy holatini tahlilida avvalo uning begonalashuv hissi ustida to‘xtaladi. U o‘z oilasi uchun yagona boquvchi sifatida doimiy iqtisodiy bosim ostida yashaydi, bu esa unda “inson sifatidagi qadriyatning yo‘qolishi” tuyg‘usini kuchaytiradi. Gregorning metamorfozasi uning ruhiy tushkunligi va o‘zini jamiyatga keraksiz, ortiqcha shaxs deb his qilishining tashqi formasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu fikr R. Gray tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u Gregorning o‘z xonasida butunlay yakkalanib qolishini “psixologik izolyatsiya” jarayoni sifatida baholaydi.

Qahramonning ruhiy iztiroblari asarda oila bilan munosabatlar fonida yanada chuqurlashadi. Metamorfozadan so‘ng uning oila a‘zolari undan ijtimoiy emas, balki ruhiy jihatdan ham uzoqlashadi. Bu begonalashuvni L.F.Green “degumanizatsiya bosqichi” sifatida izohlaydi. Uning fikricha, Gregor asta-sekin o‘zining shaxsiy “men”ini yo‘qotadi, inson o‘rnida faqat jamiyatga foyda keltiruvchi mexanik kuch sifatida qabul qilingan mavjudot bo‘lib qoladi. Asta-sekin uni avvalgidek mehnat qilolmaydigan, oilaga moddiy

manfaat bermaydigan mavjudot sifatida qabul qilishadi, bu esa uning ruhiy o‘limini tezlashtiradi.

Gregorning ichki olamidagi eng keskin o‘zgarishlardan biri — identitet inqirozi. U o‘z tana va ong o‘rtasidagi mos kelmaslikni chuqur his qiladi: tanasi o‘zgargan bo‘lsa-da, qalbi va tafakkuri hali ham insonki ekanligi uning iztirobini yanada kuchaytiradi.

Xulosa qilganda, Kafkaning asaridagi metamorfoza motivi nafaqat fantastik badiiy vosita, balki bosh qahramon Gregor Zamzaning ruhiy jarayonlarini ifodalovchi markaziy tamoyil sifatida xizmat qiladi. Asarda tashqi o‘zgarish (Gregorning hasharotga aylanishi) uning ichki dunyosidagi begonalashuv, izolyatsiya, identitet inqirozi va ruhiy iztiroblar bilan uzviy bog‘langan. Shuningdek, metamorfoza motivi qahramonning oilaviy va ijtimoiy munosabatlaridagi ziddiyatlarni ochib beradi, jamiyatning inson ruhiyatiga bo‘lgan ta‘sirini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Rasulov – “Adabiyotshunoslikka Kirish “
2. Franz Kafka “Evrilish”
3. Grey.R. Metamorfoz va Zamonaviy psixika_ Nyu York : Oksford Universiteti,2005
- 4.Green,L.F.Kafkaning Degumanizatsiyalangan qahramoni,2012
- 5.Cho‘lliyeva N.Adabiy ta‘sir, badiiy uslub, mahorat: Franz Kafka va Nazar Eshonqul